

Jurnal 2024-yildan boshlab filologiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining №072250 raqamli guvohnomasi asosida dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: OBIDJON XAMIDOV, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinbosari: DILRABO QUVVATOVA, filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Mas'ul kotib: NAFOSAT O'ROQOVA, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

IBODULLA MIRZAYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,
filologiya fanlari doktori, professor
(O'zbekiston)

DARMONOV O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor
(O'zbekiston)

NURBOY JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor
(O'zbekiston)

NURALI NUROV,
filologiya fanlari doktori, professor
(Tojikiston)

SALIMA MIRZAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor
(O'zbekiston)

SHAVKAT HASANOV,
filologiya fanlari doktori, professor
(O'zbekiston)

NURETTIN DEMIR,
Pr. Dok. (Turkiya)

ALFIYA YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Rossiya)

FUNDA TOPRAK,
Pr. Dok. (Turkiya)

NIZOMIDDIN MURODIY,
filologiya fanlari doktori, professor
(Tojikiston)

OLAF GUENTHER,
Filologiya fanlari doktori, Leypsig
universiteti (Germaniya)

ALBINA HAAS,
MA., Myunster universiteti Germanistika
instituti dotsenti (Germaniya)

G'AYRAT MURODOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,
filologiya fanlari doktori, professor
(O'zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

ZEBU QOBILOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc) (O'zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

HUSNIDDIN ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

MA'RIFAT RAJABOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

QAHRAMON TO'XSANOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

ZUBAYDULLO RASULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

MAQSUD ASADOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

BAXTIYOR FAYZULLOYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

HILOLA SAFAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
(O'zbekiston)

SAIDA NAZAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, professor
(O'zbekiston)

BAYRAMALI QILICHEV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

DILOROM YO'LDOSHEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

ZILOLA AMONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

NAFISA G'AYBULLAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

MUBORAK XAMIDOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

JEREN MIZRABOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

YARASH RO'ZIYEV,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

OTABEK NOSIROV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)
(O'zbekiston)

ZARNIGOR SOBIROVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent (O'zbekiston)

SADOQAT MAXMUDOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent (O'zbekiston)

NODIR RO'ZIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) (O'zbekiston)

NODIRA XOLIQOVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
(O'zbekiston)

RO'ZIGUL QODIROVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) (O'zbekiston)

TO'XTAMUROD RAJABOV
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent (O'zbekiston)

JAMOATCHILIK KENGASHI

Jamoatchilik kengashi raisi:

TO'LQIN RASULOV,
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari:

ERGASH QILICHEV,
filologiya fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

Jamoatchilik kengashi:
MUSLIHIDDIN MUHIDDINOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MAHMAYUSUF IMOMZODA,
filologiya fanlari doktori, akademik (Tojikiston)

NAFAS SHODMONOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HAYITOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

SHODMON SULAYMONOV,
filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

GULMUROD ZARIPOV,
texnika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)

BIBISH JO'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

LAYLO SHARIPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

NAZORA BEKOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

ATOULLO AXMEDOV,
filologiya fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston)
GULI TOIROVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
LOLA NE'MATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
BASHORAT JAMILOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MUHARRIRLAR:

SHOHSANAM DAVRONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
RA'NO RAJABOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
IXTIYOR KAMOLOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
MEHRIGIYO SHIRINOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TEXNIK MUHARRIRLAR:

NASIMA Qodirova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
NIGORA Sayfullayeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUSAHHIHLAR:

DILDORA Nazarova
SARVINOZ Raximova

Ustod Ayniy tarixnavislikda iste'dodli adib-u, yozuvchilikda tarixning ulug' bilimdoni edi. U xalqimiz o'tmishini xuddi o'zi yashayotgan zamonday mukammal bilar, bilganlarini esa badiiyat libosiga shu qadar ustakorona o'rab tasvirlardiki, undan zamon ruhi va chaqirig'i butun borlig'icha ufurib va jaranglab turardi. Uning qalami tarixdagi har bir nuqtadan jonli obraz yaratishga mohir edi.

Oxunjon Safarov,
filologiya fanlari doktori, professor

Hech ikkilanmay aytish joizki, Ayniy ijodiyoti XX asr dunyo adabiyotining eng nodir, eng e'tiborli va eng mazmundor sahifalaridan hisoblanadi. Ayniy badiiy ijodining poydevori ilm, ma'rifat, tarix, hayot va haqiqatdir. Ayniy asarlarini bilish ko'hna Sharq tarixi, madaniyati, mumtoz adabiyoti va milliy qadriyatlarini anglashga yo'l ochadi.

Ibrohim Haqqul,
filologiya fanlari doktori, professor

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
(O'zbekiston)
E-mail: yuldasheva21dilorom@gmail.com
Umarova Dildor Faxriddinovna,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
(O'zbekiston)
E-mail: dildor.umarova.1992@gmail.com

SUKUTNING O'RGANILISH ASPEKTLARI: FALSAFIY YONDASHUV

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida tafakkurning tilda aks etishi va ularning nutqiy voqelanishi insoniyat sivilizatsiyasini taraqqiyotga chorlovchi omillardan ekanligi allaqachon o'z isbotini topmoqda. Pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalar doirasida o'rganiluvchi diskurs va uning birliklari, jumladan, sukut mavzusida tadqiqotlarning yuzaga kelishi nutq masalalarining o'ziga xos jihatlari yanada teranroq anglashga xizmat qilmoqda. Xususan, turli xalq vakillarining o'zaro ijtimoiy, siyosiy diplomatik, gumanitar, iqtisodiy, madaniy almashinuv, turizm kabi bugungi kunda ko'plab davlatlarning rivojiga turtki bo'layotgan aloqalarda har bir xalqqa xos nutqiy muloqot birliklarini o'rganish, diskursda foydalaniladigan muloqot aktlaridan sukutning o'ziga xos o'xshash va farqini ifodalagan ma'nolariga ko'ra lingvopragmatik aspektda tadqiq qilish muhim.

Kalit so'zlar: verbal vosita, nonverbal vosita, nutqiy muloqot, sukut, falsafiy yondashuv

Аннотация. В мировой лингвистике доказано, что выражение мышления посредством языка и их вербальное проявление являются факторами способствующими развитию человеческой цивилизации. Изучение дискурса и его единиц, в том числе исследование темы молчания, рассматриваемых в рамках таких направлений, как прагмалингвистика, социолингвистика, психолингвистика, лингвокультурология, служат углублению понимания своеобразных аспектов речевых вопросов. Политические, экономические и культурные коммуникации являются основной в развитии государств, основу которых составляют языковые единицы речевого акта, индивидуальные для каждого народа, их изучение в дискурсе, а также сравнительное и контрастивное изучение молчания как коммуникативного акта позволяет его рассмотрение в лингвопрагматике.

Ключевые слова: вербальная среда, невербальная среда, вербальная коммуникация, тишина, философский подход

Abstract. In world linguistics it has been proven that the expression of thoughts through language and their verbal manifestation are factors that contribute to the development of human civilization. The study of discourse and its units, including the study of the topic of silence, considered within the framework of such areas as pragmalinguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, and linguacultural studies, serve to deepen the understanding of the unique aspects of speech issues. Political, economic and cultural communications are fundamental in the development of states, the basis of which are linguistic units of speech act, individual for each nation, their study in discourse, as well as comparative and contrastive study of silence as a communicative act allows its consideration in linguopragmatics.

Keywords: verbal environment, non-verbal environment, verbal communication, silence, philosophical approach

Kirish. Nutqiy muloqot fikr bayon qilish jarayoni bo'lib, shubhasiz, ko'p holatlarda lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og'zaki shaklda moddiy voqelanishi bilan bog'liq. Lekin lisoniy birliklarning voqelanishi bilan bog'liq bo'lmagan muloqot turlari ham oz emas. Shunga ko'ra, muloqot ko'p hollarda verbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va nolisoniy, so'zsiz – nonverbal vosita(imohora, har xil belgi, nishona, ramz, simvol, ohang, sukut va h.)lar orqali axborot berish bilan bog'liq bo'lib, o'zaro ta'siriga ko'ra verbal yoki nonverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi.

Nutqiy muloqot jarayoni lisoniy verbal va noverbal vositalarning hamkorlikda (birgalikda) ishlatilishini taqozo etadiki, bunda soʻzsiz muloqotning bir koʻrinishi sifatida baholanishi lozim boʻlgan sukutning ham muhim oʻrni mavjudligi seziladi.

Har qanday faoliyat oʻzining amaliy qimmati bilan ahamiyatli. Nutq muloqot faoliyati boʻlganligi uchun uning samarasi ham nutqning taʼsirchanligi, maʼlum bir maqsadga erishganligi bilan belgilanadi. Soʻzlovchi va tinglovchi (kommunikant)larning bir-biriga taʼsiri, maʼlum maqsadni yuzaga chiqarish darajasi muloqot jarayonining amaliy samarasi hisoblanadi. Zero, nutqiy muloqot oddiy nutq(lisoniy imkoniyatlarning muayyan moddiy shaklda voqelanishi)dan farqlanuvchi, oʻzining murakkabligi, verbal va noverbal, shuningdek, milliy, etik, estetik, diniy, etnografik, psixologik, ijtimoiy kabi tarkibiy qismlarning oʻzaro uygʻunlashuvidan iborat boʻlgan situativ pragmatik butunlikdir.

Asosiy qism. Qadimdan oq nutqiy vaziyatda qoʻllaniladigan sukut hodisasi koʻplab soha egalarida qiziqish uygʻotib kelgan. Aksariyat allomalarning xulosalariga koʻra, “Sukut – soʻzsiz soʻzlash”, “Oʻrni kelganda, sukut soʻzdan afzal”, “Sukut – betakror ustoz”, “Sukunat oʻz-oʻzini anglashning eng qisqa yoʻli”, “Sukut – insoniyatga yaratganning tortigʻi”, “Sukut gapirmadi degani emas”, “Maʼnoli sukut bemaʼni soʻzlardan yaxshiroq”, “Sukut kuchli hayqiriq ifodasi” hisoblanadi. Nutqiy muloqot jarayonida baʼzan soʻz bilan ifodalash noʻrin yoki imkonsiz boʻlgan soʻzni, mantiq yoki fikrni sukut (suhbatdoshga) lisoniy vositalardan koʻra aniqroq, taʼsirchanroq va boshqa mulohazaga oʻrin qoldirmaydigan darajada yetkazadi.

Sukut serqirra hodisa boʻlganligi uchun ham qadimdan falsafa, ilohiyot, madaniyatshunoslik, maʼnaviyatshunoslik, psixologiya, semiotika, tilshunoslik kabi sohalarida oʻziga xos tarzda oʻrganilgan boʻlsa, hozirda oʻzaro integratsiyaga asoslangan lingvofilosofiya, lingvoetnografiya, lingvopsixologiya, lingvokulturo-logiya, lingvomaʼnaviyatshunoslik, shuningdek, amaliy tilshunoslik fanlarining tadqiq obyektiga aylangan.

Jahon miqyosida bugungi kunga qadar sukut muammosiga bagʻishlangan falsafiy tadqiqotlar soni nisbatan juda oz, shunga koʻra, sukut hodisasini falsafiy jihatdan yetarli darajada oʻrganilgan deyish qiyin. Hatto falsafa lugʻatlarida, ensiklopediyalarida ham *sukut*, *jimlik* birliklari kiritilmaganligi fikrimizni dalillaydi. Sukut hodisasiga M.M.Baxtin [2, 3], M.K.Mamardashvili [7], K.A.Bogdanov [3], M.Xaydegger [15], M.M.Buber [4] kabi faylasuf olimlar bir qadar eʼtibor qaratishganligi maʼlum. Natijalar va muhokama. Rus faylasufi M.M.Baxtin (1895-1975) sukut, sukutning turlari hamda uning serqirraligi toʻgʻrisidagi tezisni ilgari suradi va bu borada yunon faylasufi Aristotel qarashlarini davom ettiradi.

Zero, yunon faylasufi Aristotel (miloddan avvalgi 384-322) birinchilardan boʻlib sukut hodisasini mazmun ifodalaydigan hamda mazmun ifodalamaydigan jimlik sifatida ikki turga boʻladi. Tevarakatdagi sokinlik, tabiatdagi sukunat, kishilarning nutqiy jarayon(kommunikatsiya)dan tashqaridagi jimligini mazmun ifodalamaydigan sukut turiga kiritadi va faqat kishilarning nutqiy muloqot jarayonidagi jimligigina (agar u qandaydir maqsadni koʻzlagan boʻlsa yoki muayyan fikrni ifodalashga qaratilgan boʻlsa) mazmun ifodalaydigan sukut ekanligini eʼtirof etadi [1]. Sukut – moddiylikka ega boʻlmagan tabiiy hodisa. Sukutning semiotik belgisi yoʻq, u tabiiy hodisa sifatida hech qanday mazmunni yetkazishga qodir emas. Sukut qachonki inson ruhiyatiga koʻchgach, u turli maʼnolarni yuzaga chiqarish vositasiga aylanadi.

Aristotelning mazkur tezisi keyinchalik falsafada, tilshunoslik hamda psixologiya sohalarida sukut borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar uchun metodologiya vazifasini bajardi, desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Bu faylasufning sukut saqlash bilan bogʻliq oʻtkir aforizmlari ham hamon oʻz mohiyatini yoʻqotgani yoʻq. Jumladan, “Odam gapirishni ikki yil davomida oʻrganadi, keyin esa umrining oxirigacha jim boʻlishni oʻrganadi”[1]. Darhaqiqat, koʻpchilik uchun sukut saqlash (tinglash) soʻzlashdan koʻra mashaqqatliroq mehnat sanaladi.

Hikoyat: Tinglash kishidan sabr-qanoatni, chidam-bardoshni va oʻziga xos odob-axloqni talab etadigan xislatdir. Bir kuni qadimgi yunon faylasufi Arastuning oldiga juda ham sergap yosh yigit kelib unga notiqlik sanʼatini oʻrgatishni iltimos qilirdi. U dabdabali soʻzlarni izhor etgandan soʻng Arastudan oʻqish uchun qancha haq toʻlashini soʻrabdi.

– Sendan boshqalarga qaraganda ikki barobar koʻproq haq olinadi,– qovogʻini solib javob beribdi faylasuf.

–Nima uchun? –hayron boʻlibdi yigit.

– Chunki sen bilan ikki barobar ishlashga to‘g‘ri keladi: senga so‘zlashni o‘rgatishdan avval jim turishni o‘rgatishim lozim [9, 5].

M.M.Baxtin Aristotelning sukut va uning turlari to‘g‘risidagi fikrlarini boyitadi: sukut, sukunat va to‘xtam(pauza)ni bir-biridan farqlaydi. Olimning fikricha, sukunat deganda tabiiy hodisa, muayyan makon va zamonda tovushning yo‘qligi tushuniladi; sukut esa, undan farqli o‘laroq, so‘zning, gapning yo‘qligini, ammo ular ifodalaydigan mazmun mavjudligini ko‘rsatuvchi, inson ruhiyati bilan aloqador hodisadir. To‘xtam – matn tarkibidagi sintaktik birliklarni bir-biridan ajratib talaffuz etish uchun qo‘llaniluvchi sukutdan keskin farqlanuvchi vosita [2]. M.M.Baxtinning mazkur fikrlari tilshunoslik falsafasida ham inobatga olinadiki, u hamon o‘z mohiyatini yo‘qotgan emas.

Gruzin faylasufi M.K.Mamardashvili (1930-1990)ning sukut hodisasi bilan bog‘liq tafakkur va nutq, nutq va yozuv o‘rtasida ikkita chegara mavjudligi haqidagi mulohazalari e‘tiborga loyiq. Faylasufning fikricha, nutqiy muloqot jarayonida tinglovchi so‘zlovchining aytayotgan fikri o‘rinsiz yoki aytilgan fikr yolg‘on, noto‘g‘ri ekanligini bilib, sezib turganda tafakkur nutq jarayonini og‘zaki (verbal) shakldan noverbal holatga o‘tishini taqozo etadi va sukut saqlanadi. Aytilishi nojoiz bo‘lgan so‘zlar, gaplar o‘rnida yozuvda ham “sukut saqlanadi” (Bu vazifani, tabiiyki, ko‘p nuqta bajaradi.).

M.K.Mamardashvili sukut va nutqning tengligiga ishora qiladi – fikr ifodalashda sukut nutq bilan teng, demak, jim turishning xususiyatlari o‘rganilishi zarur [7]. Garchi M.K.Mamardashvilining nutqiy muloqotda sukutning ishlatilishi bilan bog‘liq fikrlari takror bo‘lsa-da, sukut va nutqning tengligi xususidagi mulohazalari fan uchun yangilik edi.

Rus faylasufi K.A.Bogdanov(1963) “Очерки по антропологии молчания” monografiyasida M.K.Mamardashvili mulohazalariga hamohang fikrlarni keltirib o‘tadi: “Sukut – nutq madaniyatining unsuri, u nafaqat nutq madaniyati, balki umuminsoniy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan jihatki, undan unumli va o‘rinli foydalanishni har bir kishi bilishi hamda hisobga olishi kerak. Sukut va undan foydalanish zamon, makon, millat yoki mavqe tanlamasligi hamisha ham e‘tiborga olinavermaydi. Jamiyatning so‘zlamaydigan a‘zolari bor, lekin hech qachon jim turmaydiganlar yo‘q. Ma‘lum ma‘noda sukut so‘z o‘rnida ishlatiladi, demak, so‘zda ifodalanishi mumkin bo‘lgan mantiqni yuzaga chiqara oladi. Bu aniq dalil: sukut so‘zdan kam paradoksali emas [3].

K.A.Bogdanov o‘z monografiyasida birinchilardan bo‘lib sukut hodisasini falsafiy, diniy, etnografik, psixologik va sotsiologik jihatdan tahlilga tortadi va o‘zining sukut bilan bog‘liq konsepsiyasini yaratadi. Olim jamiyat uchun sukut boshqa muloqot shakllariga funksional jihatdan teng hodisa ekanligini dalillaydi.

K.A.Bogdanov Baxtinning sukut hamda sukunatni farqlash to‘g‘risidagi mulohazalarini qo‘llab quvvatlamaydi, tabiatdagi, tevarak-atrofdagi jimlik ham, nutqiy muloqot jarayonida saqlangan sukut ham insonga nisbatan tabiiydir, deb hisoblaydi. Olim fikrlarini ingliz (silence), fransuz (silenzio) va ispan (silencio) tillarida sukut va sukunat yoki sukut va jimlik tushunchalari farqlanmasligi asosida dalillashga harakat qiladi.

Nemis faylasufi Marten Xaydegger (1889-1976) ta’kidlaydi: “Agar kishilar o‘rtasidagi nutqiy muloqot jarayoni suhbatdoshlarda begonalashish, shu suhbatdan qochish yoki o‘z-o‘zini anglashni yo‘qotishni kuchaytirsalar yoki inson uchun muhim bo‘lgan an‘analar, e‘tiqod va tushunchalarni toptay boshlasa, mazkur muloqotni davom ettirib bo‘lmasligi aniq. Tabiiyki, bu yolg‘izlik kayfiyatini kuchaytiradi. Mazkur sharoitda endi muhimi nutqiy muloqotni verbal vositalar bilan davom ettirish emas, balki har qanday murojaat, so‘roq, taklif yoki mulohazaga sukut bilan javob qaytarmoq o‘rinlidir” [16].

Xaydegger so‘z bilan javob berish ortiqcha yoki muayyan fikrni og‘zaki ifoda etish mumkin bo‘lmagan holatlarda eng muhimi sukut saqlamoq ekanligini aytadi va sukut vaqtinchalik (oniy) xarakterda bo‘lib u muayyan nutqiy vaziyat uchun aniq maqsadni yuzaga chiqarishi ham, chiqarmasligi, ya’ni abstrakt holda bo‘lishi ham mumkinligiga ishora qiladi. Xaydegger ta’kidicha, bor haqiqat shuki, sukut barcha so‘zlardan afzalroq.

Martin Xaydegger “Путь к языку” (“Tilga yo‘l”) monografiyasining “Язык” (“Til”) qismida sukut hodisasi xususida batafsil to‘xtalib o‘tadi va “sukut haqiqiy kommunikatsiya” ekanligini ta’kidlaydi. “To‘g‘ri, sukutni tovushlar tizimi bilan aytish yoki harflar yordamida yozish mumkin emas. Ammo nutqiy muloqot jarayonida “nobop” kommunikantning “sa’y-harakati” bilan sukutdan foydalanishga to‘g‘ri keladiki, bu oxir oqibat “tilga olib keladi”... Til esa, borliqning uyidir”[17,93]. Nemis mutafakkirining fikricha, sukutning mohiyati, bir tomondan, moddiy nutqning yo‘qligini, ikkinchi

tomondan, nomoddiy nutqning mavjudligini ifodalashida namoyon bo'ladi. Xeydegger nutqiy muloqot jarayonining fikr, maqsad yoki javob sukut bilan ifodalangan vaziyatlarida jim turgan suhbatdosh o'zining pozitsiyasini subyekt sifatida belgilab berishi mumkinligini aytadi. Ba'zan sukut orqali qaytarilgan javob shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, uni so'z bilan ifodalaganda shu ta'sir kuchini berib bo'lmaydi.

Fikrimizcha, Martin Xaydeggerning: "O'rni kelganda, sukutning ta'sir kuchi so'zdan balandroq turadi", degan fikrida daniyalik taniqli faylasuf, ilohiyotshunos va yozuvchi, falsafa olamida birinchi marta estetik, axloqiy va diniy yondashuv asosida "inson mavjudligi bosqichlari dialektikasi"ni yaratgan Syopen Kyepkegor(1813-1855)ning qarashlaridan ilhomlangani sezilib turadi.

Syopen Kyepkegor 1843-yilda yaratilgan "Yoki-yoki" ("Или-или") asarida insonning ruhiy holati xususida mulohaza yuritib: "Inson faqat sukut saqlashi bilangina chinakam gapira oladi va harakatga erishadi", deb yozadi [6]. Umuman olganda, Kyepkegor ham, Xaydegger ham "sukut turli funksiyalarga ega, verbal nutqqa nisbatan ikkinchi o'rinda turuvchi hodisa" degan g'oyani ilgari surishadi.

Nemis faylasufi Martin Buber (1878-1965) sukut hodisasini erkinlikning falsafiy kategoriyasi bilan bog'laydi. Buber fikricha, nutq jarayonida so'zlovchi fikrini so'z bilan ifodalash orqali nutqiy jarayondagi pozitsiyasini ma'lum darajada belgilab oladi, tabiiyki, bunda so'zlovchining ham, tinglovchining ham o'z o'lehoivi, tanlovi bo'ladi. Sukut holatida so'zlovchi (yoki tinglovchi) o'z pozitsiyasini tanlash orqali unga yuklangan axloqiy majburiyatlardan ozod bo'ladi [4]. Martin Buber o'z qarashlari bilan sukut hodisasini falsafiy tushuncha sifatida nutqiy muloqot jarayonidan chetga chiqaradi, ya'ni sukut hodisasiga erkinlik kategoriyasining tarkibiy birligi sifatida yondashadi.

Til falsafasida sukut hodisasi til va tafakkur dixotomiyasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Avstriyalik faylasuf va mantiqchi Lyudvig Vitgenshteyn (1889-1951) "jimlik tezi"ni 1994-yilda ishlab chiqadi [14]. Lyudvig Vitgenshteynning metafizikasicha, izohlab bo'lmaydigan narsa haqida doimo sukut saqlash kerak. Mazkur fikr sukut bir qator faylasuf, ilohiyotchi va boshqa soha vakillari tomonidan qo'llab quvvatlandi.

Lyudvig Vitgenshteyn "jimlik tezi"ni tuzishda Xaydegger g'oyalariiga tayanganligi sezilib turadi.

Sukut va so'zlashning dialektik bog'liqligini ko'rsatib bergan Uvilyam Shmits sukutni tilning tarkibiy qismi ekanligini yozadi. "Lingvistik belgilar biror narsaga ishora qiladi, yetishmayotgan narsani almashtiradi, lekin belgilarning o'zini ham almashtirish mumkin. Shunday sharoitda sukut yetishmayotgan belgilar belgisiga aylanadi. Sukut nutqiy jarayonni buzmaydi, agar nutqda hamma narsani ovoz chiqarib aytish (yoki yozish) mumkin emasligini inobatga olsak, sukut nutqni mukammallashtirishi ko'rinadi" [19].

U. Shmits sukutning quyidagi turlarini ajratadi:

1) so'zlamaydigan sukut (unexpected silence): har qanday vaziyatda to'satdan paydo bo'ladigan kutilmagan jimlik, masalan, kommunikant to'satdan gapini yo'qotib qo'yganda yoki xijolatli holatdagi kishining kerakli so'zni topa olmay qolishi;

2) kutilgan sukut (expected silence): kishilarning biror narsani, masalan, ma'ruzani tinglayotgan yoki kinofilm tomosha qilayotgan paytidagi jimligi;

3) tasodifiy sukut (incidental silence): sukut sifatida qabul qilinmaydigan jimlik, bu nutqda turli uzunlikdagi pauzalarni bildiradi.

U. Shmits nutqda ovoz chiqarib aytish mumkin bo'lmagan narsalar o'rnida qo'llaniladigan sukutni alohida ajratadi [13].

Qator faylasuflarning qarashlarida sukut hodisasiga yo'l-yo'lakay (bir-ikki jumlada yoki bir-ikki sahifada) munosabat bildirib o'tilgan o'rinlar ham anchagina uchraydi. Jumladan, Yunon faylasufi Mark Tullius Sitseron (miloddan avvalgi 106-43-yy.)ning fikricha: "Sukut – kuchli hayqiriq". Sitseron qarashlarida uning sukut hodisasini nutqning nomoddiy ko'rinishi sifatida qabul qilinishi tarafdori ekanligi seziladi [19].

Yunon faylasufi Lutsey Seneka (miloddan avvalgi (noaniq)-65-yy.) kommunikantlarning nutqiy muloqot jarayoniga mos va xos sukut saqlay olishini so'zlash qobiliyati bilan teng o'ringa qo'yadi: "Jim bo'lishni bilmagan odam so'zlashni ham bilmaydi". Seneka to'g'ri ta'kidlaganidek, aqlli insonlar kamroq so'zlab ko'proq tinglaydilar. Ko'p gapiradigan, boshqalarni tinglamaydigan, jim bo'lishni eplolmaydigan

kishilarning nutqi qanchalar ravon, soʻzlari chiroyli va balandparvoz boʻlmasin, ularning nutqlari beqadr va besamar boʻladi. Bu holatni faylasuf loʻnda qilib “soʻzlashni ham bilmaydi” tarzida ifodalaydi.

Yunon faylasufi Pifagor (miloddan avvalgi 576-496) sukut haqida shunday yozadi: “Tinglash va sukut saqlash seni donolikka yetaklaydi. Sukut – donolikning boshlanishi”. Pifagorning sukut haqidagi fikridan koʻrinadiki, faylasuf sukut hodisasiga falsafiy jihatdan yondashib uni donolik mezoni bilan bogʻlaydi.

Sukut va ichki nutq oʻrtasidagi yaqin aloqani inkor etib boʻlmasligini aksariyat faylasuflar oʻz aforizmlarida qisqa va loʻnda ifodalashganini kuzatamiz. Internetning <https://citater.ru/category/> sayti faylasuflarning sukut haqida aytgan 144 ta aforizmini qayd etadi. Ularning baʼzilarini tahlilga tortamiz. Jumladan, qadimgi gretsiyalik faylasuf Teofrast (miloddan avvalgi 371-287) shunday yozadi: “Agar sen avom boʻlsang va donolar oldida sukut saqlasang, demak, sen aqlisan; agar sen dono boʻlsang-u, (keraksiz oʻrinda) sukut saqlasang, demak, sen ahmoqsan”. Teofrast fikricha, kishi sukut saqlamoqning ham, oʻz vaqtida soʻzlamogʻning ham meʼyorini bilishi kerak. Darhaqiqat, meʼyor chegarasidan chiqqan har qanday voqelik, tushuncha yoki mohiyatda buzilish boʻladi, shu jumladan, nutqiy faoliyat jarayonidagi sukutda ham.

Nemis faylasufi Gyote (1749-1832) yozadi: “Agar atrofimizdagi kishilar bizni kamdan kam toʻgʻri tushunishlarini bilsak, biz koʻproq sukut saqlagan boʻlardik”. Gyotening mazkur aforizmi bizga hazrati Rumiy(1207-1273)ning: “Karlarning orasida gʻazal aytma, koʻrlarning bozorida oyna sotma” degan misralarini eslatadi. Demak, seni tushunmaydiganlar orasida soʻzlamaslik, sukut saqlash ham “soʻzlamay soʻzlash”ning bir koʻrinishi hisoblanadiki, bunday muhitda nutqiy muloqot amalga oshmadi, deb boʻlmaydi.

Amerikalik faylasuf Genri Devid Toro (1817-1862) sukutning noaniqligi xususida yozadi: “Oʻzaro munosabatlarda fojia soʻzlarni notoʻgʻri tushunishda emas, balki sukut tushunarsiz boʻlganda boshlanadi”. Demak, inson nutqiy muloqot jarayonida nafaqat sukut saqlashni bilishi, balki suhbatdoshning jim boʻlishi, sukut saqlashi sababini tushuna olmogʻi ham oʻta muhim. Bu, tabiiyki, insondan oʻziga yarasha did, farosat hamda zakovatni talab etadi. Toro kishilarga oʻzaro nutqiy muloqotning zalvarini his etib keyin suhbatga kirishishni oʻrganmoq zarurligini uqtiradi.

Rus faylasufi Aleksandr Kugel (1864-1928) soʻzni oʻrnida soʻzlamogʻ kerakligini, agar soʻz oʻz qadrini topmasa, shunday joyda eng yaxshi javob sukut ekanligini taʼkidlaydi: “Agar sodir boʻlishi kerak boʻlgan narsa aniq boʻlsa, kurash befoyda boʻlsa, hayot yakuniy auksion sari tinmay ketayotgan boʻlsa, shu sharoitda aytilgan soʻzlarning aksariyati oddiy vaysaqilikka aylanadi. Soʻzning eng qimmatli mulki – samarali vositaga aylanish imkoniyati, hayotga taʼsir qilish, yuqtirish, maqsadga muvofiq ravishda yoʻnaltirish qobiliyati – taʼsir kuchi yoʻqoladi. Bunday paytda, shubhasiz, eng yaxshi narsa – sukut”.

Fransuz fizigi, faylasuf Blez Paskal (1623-1662): “Muhabbatda sukut soʻzdan qimmatliroq. Xiyonat tilimizni kishanlaganda ham eng yaxshisi – sukut. Sukunatning shunday oʻziga xos notiqligi borki, u har qanday soʻzdan koʻra yurakka yaxshiroq yetib boradi. U oshiqning nafaqat hissiyotlarini, balki aql-zakovatini ham ochib beradi”, deb yozadi va sukut kishining qalb dunyosini, aqliy darajasini ham belgilab beruvchi oʻlchov ekanligiga ishora qiladi.

Xitoylik faylasuf Konfutsiy sukut hodisasini metaforalashtiradi: “Sukut kishiga hech qachon xiyonat qilmaydigan doʻstdir”.

Fransuz faylasufi Jan de Labryyer (1645-1696) yozadi: “Nutqiy muloqot jarayonidagi muammoni, odatda, ikki narsa keltirib chiqaradi: soʻzlovchi yaxshi gapirish uchun yo yetarli aql-idrokka ega emas, yo ehtiyotkorlik bilan jim turishni eplay olmaydi”. Shu oʻrinda Jan de Labryyer kuchli mulohazani ilgari suradi: muayyan fonetik shaklga, semiotik koʻrinishga ega boʻlmagan sukut hodisasini lisoniy birlik (leksema) voqeligi boʻlgan soʻz bilan teng kelishiga ishora qiladi.

Tabiiyki, nutqiy muloqot jarayonida sukutdan oʻrinli va unumli foydalanish aqlli, soʻzini, oʻzini qadrlaydigan, suhbatdoshini ranjitishdan tiyladigan fazilatli insonlarga xos jihat sanaladi. Ammo nutqiy muloqot jarayonida jim turish hamisha ham fazilat emas, qusur boʻlishi ham mumkin. Ingliz faylasufi Fransis Bekon (1561-1626) sukut saqlashning shu jihatiga eʼtibor qaratadi va: “Sukut ahmoqlarning fazilatidir”, deb yozadi, baʼzan bu mohiyatni ham rad etib boʻlmaydi. Ayni paytda bu sukut hodisasining serqirralik tabiatiga egaligidan dalolat beradi.

Hikoyat: Qadimda bir podshoning yakka-yu yagona merosxo'r o'g'li bor edi. O'g'ilning tanasi sog' bo'lsa-da, aqli tana salomatligidan orqaroqda edi. Podsho farzandi 12 yoshga kirganda barcha a'yonlarini to'plab ularga shunday debdi:

–Sizlarga ikki yil muhlat beraman. O'g'limga bor bilimlaringizni erinmay o'rgatasizlar. Dunyoning eng yaxshi muallimlarini o'g'limga saboq berish uchun topib keltirasizlar.

Saroy a'yonlari bor kuch va bilimlarini ishga solishib podsho bergan topshiriqni bajarishga kirishibdilar.

Aytilgan muddat tugagach podsho o'g'lini muallimlari hamrohligida huzuriga chorlabdi. Bo'ylari cho'zilib, ancha jiddiy tortib qolgan o'g'lini ko'rgan podsho oldida turgan idishdan sekingina bir yong'oqni olibdi-da, mushtiga yashirib baland ovozda:

–Mening kaftimda nima bor, o'g'lim? – deb so'rabdi.

O'g'il chuqur o'yga tolib uzoq sukut saqlabdi. Podsho o'g'lining uzoq sukut saqlashini farosatga yo'yibdi. O'g'ilning ko'zi xos xona derazasidan tashqariga – saroy hovlisiga – kelib to'xtagan qo'qonaravaga tushibdi.

Uzoq sukutdan keyin o'g'il javob kutayotgan podshoga:

– Qo'qonaravaning g'ildiragi, – deb javob bergan ekan...(Hikoyat bir necha yil avval marhum tilshunos olim professor H.G'.Ne'matovdan yozib olingan.)

Demak, nutqiy muloqot jarayonida kommunikaning saqlagan sukuti, Fransis Bekon aytganidek, hamisha kerakli mazmunni ifodalamasligi ham mumkin.

Ukrainalik olimlar A.I. Svetlova hamda I.V. Stavnichiy o'zlarining “Sukunat aloqa hodisasi sifatida” (“Молчание как феномен общения”) nomli tezislarida sukut hodisasi amerikalik faylasuf T.Bruno, ingliz faylasufi va davlat arbobi D.Kerzon hamda chexiyalik faylasuf K.Unrat-Sharpnak asarlarida batafsil o'rganilganligi haqida ma'lumot berishgan [19].

Sukut hodisasi qadimdan sharq faylasuflari e'tiborini ham tortib kelgan.

Sharq falsafiy adabiyotida muloqot jarayoni, muloqot jarayonida sukutning o'rni xususida so'zlovchi ham, tinglovchi ham o'zligini – saviyasini, madaniyatini, bilimini va hatto dinini, mafkura va ijtimoiy mansubligini namoyon qilishi haqida Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Abu Abdullo Rudakiy, ibn Rushd, ibn Arabiy, Abdurauf Fitrat kabi yuzlab adiblarning qimmatli mulohazalarni bayon qilganlari fikrimiz dalilidir [8].

Jumladan, Yusuf xos Hojibning “Qutadg'u bilig” falsafiy asarida podsho Kuntug'di (Elig) va vazir Oyto'ldi (Hojib) orasidagi munozalardan biri muloqot madaniyatida so'zlash, tinglash, sukut saqlash madaniyatiga bag'ishlanganligini quyidagi tabdilda kuzatamiz:

*Elig buyurmasdan qanday qilib so'zlayin,
So'ramasdan avval qanday qilib arz qilayin.
Sen bilimli so'zni eshit, bo'yin tovlama,
So'ramas(lar)dan oldin so'z(lar)ingni so'zlama.
Kimda kim (biror) kishi lozim topib, istab chaqirsa,
U (chaqirgan)gina so'zni ulab avval gapirishi kerak.
So'ramas(lar)dan oldin so'z(lar)ingni so'zlama,
(Agar so'zlasang) kim, ey yilqi, desa, u to'g'ri gapirgan bo'ladi.
Yana telba, tentak kishi shuki, bilgin,
(So'z) so'ramagan beglarga so'zga til ochsa [18].*

Mazkur o'rinda sukut saqlash, jim turush fazilat, ortiqcha so'zlash esa telbalik deb baholanadi. Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi va so'zboshi muallifi Boqijon To'xliyev “Tilingni avayla –omondir boshing” deb nomlanuvchi bo'limda juda oz so'zlash, hech qachon ko'p gapirmaslik, sukut saqlash haqida shunday deydi:

*Talay so'zda aslo bo'larmi foyda
Ziyondan bo'lak yo'q so'z ortiq joyda [18].
Yusuf xos Hojib:
Yetarli so'zla so'z, ko'p so'zlashdan qoch,
Tuman so'z ma'nisin bir so'z bilan och*

baytida ham “ko'p so'zlashdan qoch”deganda jim turishga, sukut saqlashga ishora qiladi.

Sharq faylasuflari keraksiz o'rinda so'zlash, ya'ni sukut saqlay olmaslik kishini halokatga yetaklashini mashhur tarixiy voqea bilan ham sharhlaydilar. Masalan, Mansur Xalloy (858-922): "Anal-haq" – "Men haqman" degan fikrni aytgani uchun shariat fatvosi bilan dastlab dorga ostirilib, so'ngra kuydiriladi va kuli Dajla daryosiga oqizib yuboriladi. Mansur Xalloyning "Anal-haq"idan ko'ra dahshatliroq (shariat nuqtayi nazaridan) shiorni, ya'ni: "Subhoniy, subhoniy, lo, iloha illa aniy" ("Subhonman, subhonman, mendan o'zga Alloh yo'q") degan fikrni aytgan eronlik olim Boyazid Bistomiy (801-875) esa, avliyolar peshvosi bo'ladi. Asrlar davomida, bahs-u munozaralardan keyin, Mansur Xalloyning haq yoki nohaqligi masalasida tasavvufda fors faylasufi Abdulloh Ansoriy(1006-1088)ning qarashi ustuvorlashdi.

Faylasuf olim va shayx, adib xoja Abdulloh Ansoriydan shogirdlari: "Kim haq, Mansurmi, mullalarmi?" deb so'rganlarida xoja Abdulloh: "Suxan ba ahli suxan boyad guft" ("So'zni so'z ahliga aytish lozimdir"), deb javob beradilar; Mansur Xalloy "Anal-haq" g'oyasini shu tushunchani ilg'ay oladiganlar, ya'ni tariqat ahli doirasida aytganida jazolanmas edi. U esa "Anal-haq" – "Men haqman", ya'ni "Men xudoman" g'oyasini avomga aytdi va haqli ravishda shariat qonunlari asosida jazolandi.

Bu xulosani Kaykovus "Qobusnoma"da shunday yozadi: "Gar so'zni va hunarni yaxshi bilsang ham, hech bir so'zni sindirmag'il, to'g'ri ta'rif qilg'il va uni bir rangda aytg'il: xosga xos so'z, omiyga omiy so'z deg'il, toki u hikmatga muvofiq bo'lsun va eshitg'on kishiga og'ir kelmasin, yo'qsa, so'zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag'aylar. Undin so'ng ularning rizosiga qarab so'zlag'il yo sukut saqlag'il, to salomat bo'lg'aysan" [5,41].

Demak, nutqiy muloqot jarayonida o'z o'rnida jim turish, suhbatdoshlarning saviyasidan kelib chiqqan holda sukut saqlay olish ham juda muhim ekan.

Navoiy hazratlari "Devoni Foni"da yozadilar:

*Сухан ҳарчанд ҷонпарвар бувад, хомушӣ авлотар,
Тариқи авлӣ ар дорӣ нигаҳ, соқит шавӣ Фонӣ* [12,267].

Ya'ni

So'z tanlarga har qancha jon baxsh etsa ham, xomushlik yaxshiroqdir.

Ey Foni, yaxshilik yo'lini tutsang, yaxshisi sukutdir.

Bu o'rinda ulug' alloma sukutni so'zdan yuqoriroq qo'yadi.

Barcha sharq allomalari kabi mir Alisher Navoiy ham nutqiy muloqotda sukut saqlamoqni fazilat deb hisoblaydilar. Jumladan, "Nasoyim-ul muhabbat" [11]da sukut bilan bog'liq quyidagilarni o'qiymiz:

1) Abulabbos Ibn Ato ta'rifida –

*So'zlasa, so'zining bari ma'noli
Va gar sukut qilsa, bari malohat.* (94-b.)

Bu shayxning har bir so'zi ma'noli: besabab va besamar so'zlamaydi va agar sukut saqlasa ham, sukuti nihoyatda go'zal fazilatdir. Bu o'rinda sukut falsafiy odob mezonini bilan bog'langan.

2) Abu Amr Nujayd ta'rifida –

Aning so'zidurkim, sukut so'zga nisbataya ta'sirliroq va tezda yetib boradi. (155-b.)

Sukut insonning tug'ilishidan toki oxirgi nafasigacha unga hamroh bo'ladigan universal hodisalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy turmushda insonning so'zlay olish qobiliyati, nutqiy muloqotga kirisha olish imkoniyati qay darajada tabiiy bo'lsa, uning sukuti va sukutdan foydalanish holati ham shu darajadadir. Sharqning faylasuf allomalari buni aksioma darajasida deb bilishganligi ularning o'gitlarida, hikmatli so'zlarida qabariq holatda turadi.

3) Xoja Muhammad Porso ta'rifida –

Dedilarki: til behuda gapdan sukut qilsa, qalb Alloh bilan tillashadi. Agar til gapga tushsa, qalb sukut qiladi.

Sukut ikki xildir: tilning sukuti va qalbning dunyo andishalaridan sukut qilishi. Kimki, tilida sukut qilsa-yu qallda sukut qilmasa, uning gunohi yengil bo'ladi. Kimki, tilda ham qallda ham sukut qilsa, unga sirlar zohir bo'ladi, ulug' va qudratli Parvardigor unga tajalli qiladi. Kimki, tilida ham, qalbida ham sukut saqlamasa, shaytonning mulki va qo'g'irchog'i bo'ladi. Bundan barchamizni Allohning o'zi asrasin!

Kimki, qallda sukut qilib, tilda sukut qilmasa, behuda gapdan tiyiladi, hikmat tili bilan gapirguvchi bo'ladi. Allohu Taolo o'z fazl-u karami ila ulardan bizni nasibador qilsin! (265-b.)

Bu o‘rinda nutqiy muloqot jarayonida sukut va so‘z so‘zlash tenglashtiriladi va sukutning inson tafakkuri bilan aloqadorligiga ishora qilinadi.

Faylasuf alloma “Hayrat-ul abror” dostonida shunday yozadi:

*Garchi yetib jomi hidoyat manga,
So‘zda sukut o‘ldi bag‘oyat manga* [10,62].

Ya‘ni, shoir demoqchiki, garchi haqiqat jomiga qo‘lim yetgan bo‘lsa-da, ko‘p vaqt so‘zda sukut saqlamoqni afzal bildim.

Xulosa. Umuman, sharq madaniyatida sukut sharqona etiket, odob-axloq qonun-qoidalarining tarkibiy qismi sanalgan. “G‘arb-u sharq mintaqalari odobida yana bir katta farq borki, bu hozirgi paytda G‘arbda huquqning axloqdan, Sharqda axloqning huquqdan ustuvorligi masalasi. G‘arb yoshlari balog‘atga yetgach, ota-onaga teng huquqli fuqarolar sifatida munosabat qiladi, o‘zining qarshi fikrini to‘ppa-to‘g‘ri, ota yo onasining yuziga tik qarab bayon qiladi va buni inson huquqlaridan, shaxs erkinligidan foydalanish deb biladi. Sharq yoshlari, masalan, yapon yoki o‘zbek ota-onaga tik gapirishni, to‘g‘ridan to‘g‘ri qarshi chiqishni an‘anaviy axloqiy qoidalarining oyoqosti qilinishi deb tushunadi, padari yo validasiga ko‘zini yerga tikib, muloyim, o‘z fikrini tovush ko‘tarmay aytishni, ba‘zan esa sukut saqlashni afzal deb biladi, ularga bo‘ysunishni burch sifatida olib qaraydi” [20, 19].

Sharq filosofiyasida yaratilgan asarlarda sukutning falsafiy talqini ko‘p asrlar davomida rivojlangan diniy amaliyotda va mutafakkirlarning diniy asarlarida ushbu hodisaga munosabat bilan bog‘liqligi yuqorida keltirgan misollarimizda ham ko‘rinib turibdi. Shuning uchun sukut hodisasining o‘rganilishida diniy talqinlarga e‘tibor qaratilishi muhim.

ADABIYOTLAR:

1. Аристотель. Риторика. – М.: Эксмо-Пресс, 2019. – 256 с.
2. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров //Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986. – С. 250-296.
3. Богданов К.А. Очерки по антропологии молчания. Номо Тасенс. – СПб.: Рус. христиан, гуман. ин-т, 1998.– 352 с.
4. Бубер М.М. Два образа веры (сборник). – М.: Аст, 1999. – 592 с.
5. Кайковус У. Қобуснома/форсчадан Муҳаммад Ризо Огаҳий таржимаси. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – 142 б.
6. Кьерлегор С. Или-или/ <https://predanie.ru/book/219811-ili-ili/>
7. Мамардашвили М. К., Пятигорский А. М. Символ и сознание: Метафизические рассуждения о сознании, символикe и языке / Под общ. ред. Ю.П. Сенокосова. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 216 с.
8. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Фил. фан. докт. ... дисс. – Т., 2000. – 235 б.
9. Мўмин Сиддиқ. Сўзлашиш санъати. – Фарғона: Фарғона, 1997. – 100 б.
10. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томли. 7-том. – Т.: Фан, 2003. – 428 б.
11. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томли. 17-том. – Т.: Фан, 2003. – 266 б.
12. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. 20 томли. 20-том. – Т.: Фан, 2003. – 268 б.
13. Schmitz, U. 1994 Eloquent silence. [Электронный ресурс] https://duepublico2.uni-due.de/servlets/MCRFileNodeServlet/duepublico_derivate_00000030/Schmitz_Eloquent_silence.pdf
14. Витгенштейн Л. Философские работы/ Перевод с немецкого: М.С.Козлова, Ю.А.Асеев/ I часть. – М.: Гнозис, 1994. – 612 с.
15. Хайдеггер М. Путь к языку / М. Хайдеггер. Время и бытие. – М.: Республика, 1993. – С. 93; 259-273.
16. Хайдеггер М. Путь к языку / М. Хайдеггер. Время и бытие. – М.: Республика, 1993. – С. 93.
17. Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўз боши муаллифи Б.Тўхлиев. – Т.: Баёз, 2014. – Б.14-15.
18. Yuldasheva D.N. Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida): Filol. fan... doktori (DSc) disser. – Buxoro, 2024. – 298 b.

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI			
23.	Yuldasheva Dilorom Nigmatovna Umarova Dildor Faxriddinovna	Sukutning o'rganilish aspektlari: falsafiy yondashuv	115
24.	Kilichev Bayramali Ergashovich Ergasheva Laziza Akmal qizi	Romitan tumani oykonimlari	123
25.	Qurbonova E'zoza Shuhrat qizi	O'zbek yuridik terminlari maxsus lug'atchiligi: tarjima lug'atlar	127
26.	Jumayeva Dilnoza Baxshulloyevna	Jahon tilshunosligida punktuatsiya tizimining nazariy asoslari va ahamiyati	132
27.	Ortiqova Hamida Maxmud qizi	Abdulla Oripov she'rlarining assotsiativ tahlili	135
28.	To'rayeva Dildora Anvarovna	Shaxsiy yozishmalardagi hududiy birliklarning lingvistik ekspertizasida dialektik yondashuv mazmuni	141
29.	Shirinova Mexrigiyo Shokirovna	"Aldama meni" teleko'rsatuvi nutq madaniyati va til me'yorlari ko'zgasida	148
30.	Kurbanova Farogat Subxonovna	Lingvistik ekspertizaning dunyo tilshunosligida va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi	153
31.	Кодиров Аббос Ахорович	Исследование концептуальных структур в когнитивной лингвистике: взаимодействие концептологии и языковой картины мира	160
32.	Ахмеджанова Ситора Джураходжаевна	Определение основных понятий и типология лингвистических корпусов	167
33.	Baxriyeva Umriniso Maxsud qizi	Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asaridagi tibbiy birliklarning morfologik jihatlari	173
34.	Ziyodillaeva Mahbuba Ermatovna	Classification of prototypical meanings in american national culture through the image of the "statue of liberty"	179
	RETRO	Беназир устозимиздан тухфа (Давоми. Боши 2024 йил, 2-сонда)	184
	FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR	Filologiya ilmidagi yangi qadamlar	191
	QUTLOV	Unvon muborak!	193